

ISLOM MOLIVASINING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDAGI ROLI: INVESTITSION JIHATLAR

Muxtorova Nafisa,
Toshkent xalqaro universiteti
e-mail muxtorovanafisa19@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisdagi Islom moliyasi vositalarining yashil iqtisodiyotga o'tishda qanday iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot – bu ekologik barqaror, ijtimoiy adolatli va resurslarga tejankor iqtisodiy model bo'lib, unga o'tish katta miqdorda moliyalashtirishni talab etadi. Shu o'rinda, islomiy moliyaviy vositalar — jumladan sukuk, mudoraba, musharaka va waqf kabi mexanizmlar ekologik toza loyihalarni shariat tamoyillariga mos ravishda qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Tezisdagi ushbu vositalarning investitsion salohiyati, xususan, Malayziya va Indoneziya tajribasi asosida tahlil qilinadi va O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, yashil iqtisodiyot, sukuk, mudoraba, investitsiya, ekologik loyihalar, shariat moliyasi, barqaror rivojlanish.

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda jahon iqtisodiyoti kun tartibida eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, global isish, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik falokatlarning ko'payishi – bularning barchasi an'anaviy iqtisodiy modelning ekologik barqaror emasligini ko'rsatmoqda. Shu sababli dunyo miqyosida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish va barqaror infratuzilmani moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ammo yashil iqtisodiyotga o'tish katta miqdordagi investitsiyalarni talab etadi. An'anaviy moliya tizimi ko'pincha faqat tijorat samaradorligini ko'zlaydi va ekologik yoki ijtimoiy samaradorlikni e'tibordan chetda qoldiradi. Shu o'rinda, Islom moliyasi o'zining axloqiy, ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvi bilan yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga mos tushadi. Islom moliyasi iqtisodiy faoliyatda foizdan voz kechish, adolat, tanglikdan qochish, iflos ishbilarmonlikni cheklash, zarar bermaslik kabi tamoyillarga tayanadi.

Islom moliyasi o'zining axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan tamoyillari bilan nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatni ham ta'minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy tizim sifatida e'tirof etiladi. Islom moliyasining asosiy tamoyillari bo'lmish ribo (foiz)dan voz kechish, g'arar (noaniqlik)dan cheklanish, harom faoliyatlardan

uzoqlashish, tanglikka emas, sheriklikka asoslanish, va adolat tamoyili uni yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan tabiiy tarzda uyg'unlashtiradi.

Birinchidan, foizdan voz kechish (ribo) tamoyili asosida Islom moliyasi real iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishni ko'zlaydi. Bu esa investitsiyalarni aynan real ekologik loyihalarga, ya'ni ishlab chiqarish, energiya, qishloq xo'jaligi va infratuzilma kabi sektorlar orqali amalga oshirishni taqozo etadi. Foizli kredit asosidagi moliyaviy tizimdan farqli o'laroq, islomiy moliyalashtirishda foyda va zarar sherikchilik tamoyili asosida taqsimlanadi. Bu yondashuv yashil iqtisodiyotda uzoq muddatli barqarorlik va mas'uliyatli investitsiya muhitini yaratadi.

Ikkinchidan, harom faoliyatlardan cheklanish tamoyili (masalan, spirtli ichimliklar, qimor, tamaki mahsulotlari, ziyon yetkazuvchi sanoatlar) atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarish turlarini moliyalashtirishni taqiqlaydi. Bu orqali Islom moliyasi faqat ekologik xavfsiz va ijtimoiy foydali loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, quyosh va shamol energetikasi, bioqishloq xo'jaligi va yashil transport sohalari ushbu mezonlarga to'liq mos keladi.

Uchinchidan, adolat va mas'uliyat tamoyili islom moliyasining o'zagini tashkil etadi. Qur'oni Karimda «Yer yuzida buzg'unchilik qilmanglar» degan ko'plab oyatlar orqali insoniyatga ekologik muvozanatni saqlash majburiyati yuklatilgan. Shuningdek, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarini orqali atrof-muhitga nisbatan hurmat, daraxt ekish, suvni isrof qilmaslik, hayvonlarga rahm qilish kabi amaliy tavsiyalar berilgan. Islom moliyasi aynan shu axloqiy va amaliy tamoyillarga tayangan holda, faqat foyda olishga emas, balki jamiyat va atrof-muhit oldidagi mas'uliyatga asoslanadi.

To'rtinchidan, Islom moliyasida keng qo'llaniladigan musharaka (hamkorlik asosidagi investitsiya) va mudoraba (kapital egasi va boshqaruvchi o'rtasidagi sheriklik) shartnomalari yashil iqtisodiyotdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ayni muddao bo'lishi mumkin. Ushbu shartnomalar asosida qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, suvni tejash texnologiyalari, ekologik toza qurilish kabi sohalarda investor va tadbirkor o'zaro manfaatli asosda hamkorlik qiladi. Bu yondashuv investitsion xavf-xatarni kamaytirish va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishda muhim vositadir.

Islom moliyasining asosiy tamoyillari yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan nafaqat mos, balki uni yanada chuqurlashtiradi. Ushbu yondashuv atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli sarmoya siyosatini shakllantirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va yangi yashil texnologiyalarga asoslangan loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, islom moliyasining global iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ko'plab davlatlar oldiga yangi moliyaviy yechimlar topish zaruratini qo'ymoqda. Bunday yechimlardan biri sifatida Islom moliyasida keng

qo'llanilayotgan va so'nggi yillarda ekologik loyihalarni moliyalashtirishda alohida o'rin tutayotgan yashil sukuk (green sukuk) tushunchasi maydonga chiqmoqda. Yashil sukuk – bu Islomiy moliya vositasi bo'lib, u faqat ekologik barqaror va ijtimoiy foydali loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Sukuk, shariatga mos bo'lgan obligatsiya turidir va foiz (ribo) o'rniga aktivdan olingan daromad asosida investorlar foyda oladi.

Yashil sukuklarning asosiy afzalligi — bu vosita orqali investorlar o'z mablag'larini shariat tamoyillariga mos va bir vaqtning o'zida ekologik jihatdan foydali sohalarga yo'naltira oladilar. Bunga quyosh va shamol energetikasi, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash, energiyani tejovchi qurilmalar, ekologik transport tizimlari va yashil infratuzilma kiradi. Ya'ni, yashil sukuk bir vaqtning o'zida ham moliyaviy daromad, ham ijtimoiy va ekologik foyda keltiradi.

Xalqaro miqyosda Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va Turkiya kabi davlatlar yashil sukuk chiqarish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Misol uchun, Malayziyada 2017-yilda birinchi yashil sukuk chiqdi va u orqali quyosh energetikasi loyihasi moliyalashtirildi. Keyinchalik, bu model muvaffaqiyatli tajriba sifatida boshqa mamlakatlarga ham yoyildi. Indoneziya esa 2018-yildan buyon har yili xalqaro bozorda yashil sukuk chiqarib, ekologik toza infratuzilma va iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirmoqda. Indoneziya hukumati 2022-yilda chiqarilgan yashil sukuk orqali \$750 millionlik investitsiya jalb qilgan bo'lib, bu orqali 300 mingdan ortiq aholiga toza suv yetkazib berish loyihasi amalga oshirilgan.¹

Yashil sukuklar, an'anaviy yashil obligatsiyalarga nisbatan, musulmon aholisi ko'p bo'lgan davlatlarda yanada kengroq qamrovga ega bo'lmoqda. Bu vosita nafaqat xususiy sarmoyadorlarni, balki Islomiy moliyaviy institutlar, banklar, pensiya fondlari va vakf (waqf) kabi ijtimoiy fondlarni ham jalb qilish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun yashil sukuk bozori hali yangi bo'lsa-da, mavjud "Yashil makon", "Yashil energiya", "Ekologik toza transport" kabi davlat dasturlarini moliyalashtirishda bu vositani joriy etish katta imkoniyatlarni ochadi. Jumladan, 2023-yildan boshlab O'zbekistonda sukuk mexanizmlarini joriy etish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar yaratila boshlandi.² Agar bu islohotlar yashil sukuk bilan birlashtirilsa, mamlakatda ekologik infratuzilmani kengaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim qadam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalarini milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab olib

¹ "Green Economy Opportunities in Central Asia", UNDP Uzbekistan, 2022.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

"2023–2030-yillarda Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish to'g'risida". — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Lex.uz (2023).

<https://lex.uz/docs/6496819>

borilayotgan islohotlar jarayonida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini huquqiy, institutsional va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan muhim hujjatlar qabul qilindi.

Eng muhim hujjatlardan biri bu — O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” bo‘lib, ushbu strategiya 2030-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Ushbu strategiyada iqtisodiy rivojlanish jarayonini ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va ijtimoiy farovonlik bilan uyg‘unlashtirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.³ Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Energetika sohasida diversifikatsiya – 2030-yilgacha elektr energiyasining kamida 25 foizi qayta tiklanuvchi manbalar, ya’ni quyosh va shamol energiyasi hisobiga ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Suv resurslarini tejash – zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar joriy etilishi hisobiga qishloq xo‘jaligida suv sarfini 40% ga qisqartirish maqsad qilingan.

Atmosfera havosining tozaligini ta’minlash – issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish orqali iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish.

Chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish – 2030-yilgacha maishiy va sanoat chiqindilarining kamida 50 foizini qayta ishlashni ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Ushbu strategiyaga qo‘shimcha ravishda 2020-yildan boshlab qator davlat dasturlari va Prezident qarorlari orqali yashil iqtisodiyot g‘oyasi amaliy shaklga keltirildi. Masalan:

“Yashil energiya” milliy dasturi – quyosh panellari va shamol generatorlarini o‘rnatish orqali elektr ta’minotining muqobil manbalarini kengaytirish.

“Yashil shahar” va “Yashil maktab” loyihalari – ekologik toza infratuzilma, chiqindilarni saralash va energiya tejovchi qurilmalardan foydalanish orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish.

Shuningdek, O‘zbekiston BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimi va 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini bosqichma-bosqich bajarib kelmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha siyosiy iroda mavjudligini va davlat darajasida keng qamrovli yondashuv qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha yaratilgan strategik hujjatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlash, barqaror energiya tizimini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotga yangi sur‘at berishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning moliyaviy tizimi bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllanayotgan bir paytda, Islom moliyasi mamlakatda muqobil, adolatli va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli moliyaviy mexanizm sifatida asta-sekin o‘z o‘rnini topmoqda. Islom moliyasi —

³ O‘zbekiston Respublikasida Islom moliyasining joriy etilishi haqida tahliliy maqola

“O‘zbekistonda islom moliyasi: muammolar va imkoniyatlar”, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, 2023.

<https://review.uz>

bu shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizim bo‘lib, u foiz (ribo), noaniqlik (g‘arar) va spekulyativ faoliyatlarni taqiqlaydi hamda real aktivlarga asoslangan bitimlarni ustuvor deb hisoblaydi. Bu xususiyatlar uni yashil iqtisodiyot bilan uyg‘unlashtirishda dolzarb ahamiyatga ega qiladi.

Islom moliyasi sohasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida Toshkentdagi iqtisodiy universitetlar, xususan, Iqtisodiyot universiteti va Islom sivilizatsiyasi markazida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro ekspertlar ishtirokida treninglar, seminarlar va forumlar tashkil etilib, milliy banklar xodimlari va siyosatchilar uchun Islom moliyasining afzalliklari tushuntirilmoqda.

Xulosa

Yashil iqtisodiyot va Islom moliyasi o‘zaro uyg‘un falsafiy va iqtisodiy asoslarga ega bo‘lgan ikki konsepsiyadir. Ularning har ikkisi ham ijtimoiy adolat, barqarorlik va javobgarlik prinsiplariga asoslangan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi — bu iqtisodiy o‘rishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Islom moliyasi esa, shariat qoidalari asosida harom elementlardan (ribo — foiz, g‘arar — noaniqlik, maysir — qimor) xoli bo‘lgan, real iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq, adolatli va ijtimoiy javobgar moliyaviy tizimdir.

Ushbu ikki yondashuvning umumiy jihatlari ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Xususan, Islom moliyasining investitsion vositalari — murabaha (foizsiz savdo), musharaka (hamkorlik asosidagi investitsiya), ijara (foizsiz ijara moliyasi), sukuk (islomiy obligatsiyalar) va boshqa vositalar — ekologik barqaror, ijtimoiy mas‘uliyatli loyihalarni moliyalashtirishda nihoyatda mos va samaralidir. Bu vositalar riskni adolatli taqsimlash, real iqtisodiy aktivlarga asoslanish va jamoaviy manfaatlarni ko‘zlash orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi bu yo‘nalishdagi ulkan imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun real asos yaratmoqda. Mamlakat 2019-yilda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ni qabul qildi, unda qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini tejash, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.⁴ Ushbu strategiyani moliyalashtirish esa katta miqdorda sarmoyani talab qiladi. Mazkur ehtiyojlarni qoplashda Islom moliyasi muqobil va foydali manba sifatida maydonga chiqmoqda.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

“2023–2030-yillarda Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risida”. — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Lex.uz (2023).

<https://lex.uz/docs/6496819>

Islom moliyasining joriy etilishi ekologik loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy adolat va shaffoflikni ta'minlaydi. Sukuk vositasi orqali elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi quyosh va shamol stansiyalari, suvni tejaydigan irrigatsiya tizimlari, chiqindi qayta ishlash inshootlari kabi yashil loyihalarni bevosita moliyalashtirish mumkin. Shuningdek, mikrofinanslash asosida kichik fermerlar, ekokorxonalar va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali ekologik va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Shu bois, O'zbekistonda Islom moliyaviy institutlarini rivojlantirish va ularni yashil iqtisodiyot loyihalariga jalb qilish nafaqat ekologik muammolarga hal etuvchi yondashuv, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadigan dolzarb va istiqbolli yo'nalishdir. Bu orqali mamlakat bir vaqtning o'zida iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat kabi muhim tamoyillarni uyg'un holda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: O'zbekistonning yangi yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Rasmiy Sayti.
2. Islamic Economics and Finance: An Overview, Islamic Research and Training Institute (IRTI), Islamic Development Bank (IDB), 2021.
3. "Islamic Finance and the Sustainable Development Goals: Working Together for a Better Future", UNDP & Islamic Development Bank, 2022.
4. Islamic Development Bank (IsDB): <https://www.isdb.org>
5. Islamic Financial Services Board (IFSB): <https://www.ifsb.org>
6. O'zbekiston Respublikasida Islom moliyasining joriy etilishi haqida tahliliy maqola "O'zbekistonda islom moliyasi: muammolar va imkoniyatlar", Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, 2023. <https://review.uz>
7. World Bank Group: "Green Sukuk: A Finance Instrument for Climate and Sustainable Development", 2020.
8. "Green Economy Opportunities in Central Asia", UNDP Uzbekistan, 2022.
9. World Bank Country Climate and Development Report – Uzbekistan, 2023.
10. Usmonov A. (2023). O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanish istiqbollari, TDIU.
11. Malaysia Securities Commission. (2019). Green Islamic Finance Framework.